

шу ҳикояда М.нинг қисмати ҳақида мақола ёзиш изидан келиб чиққан собиқ иттифоқ даврининг яққоқимлиги, ижтимоий тенгсизлик ва адолатсизлик, мисли кўрилмаган зулмат тарихида қанчадан-қанча истеъодларнинг йўқ бўлиб кетиши назарда тутилган бўлса, ажаб эмас. Ҳикоя бошдан-оёқ рамзий усулда намоён бўлади. Ҳар бир исм бир қатта код (махфий) вазифасини бажарувчи бўлиб, инсон ботинида азалдан яшаб келаётган ёвузлик кучлари сингари талкин қилинади. Ёзувчи ана шу жиҳатларни ҳисобга олган ҳолда ҳикояни “Зулмат салтанатига саёҳат” деб номлаши ҳам бежиз эмас. Ҳикоя воқеалари аксарият тунда содир бўлади. Баъзан тун, зулмат, қоронғулик, ёлғизлик худди Кафка талқинлари каби жамият ҳаётини мўрмалахдай босиб келаётган ёвузлик кучларига қаратилган бир ички эҳтиёж сифатида кўриш лозим. Адиб ана шу жиҳатларни бир-бирига зид равишда тасвирлайди.

Адиб М.нинг табиатидаги шахс сифатидаги инкирозини унинг асарлари тимсолида ҳам баҳолай оладидики, буни куйидаги тасвирлар орқали ҳам билиш мумкин:

“М. шунча йил телба, мажруҳ одамлар орасида ёлғиз яшашга мажбур бўлганди. Инсонни ёруғ хилқат сифатида кўргани сайин у ўзини майиб-мажруҳлар, касал, телба одамлар орасига шунчалар кўпроқ яширганди, у сотқинлик, хиёнат, қўркувни қайта-қайта тасвирлар, асарларини сотқин кишиларнинг дунёсига айлантирар экан, ана шу йўл билан ўзини таҳлил қилар ва бу билан ўзини ҳам фош этарди. Ҳар қалай, мен шу хулосага келгандим. У зўрлик ва зулмни шунчалик кўп тасвирлагандики, қаҳрамонлар нафақат шу зўрлик маҳсуллари, балки унинг ажралмас қисмига айланиб қолгандилар: зўрликни бутун даҳшати билан тасвирлаш М.кутгандек – зулмга нафрат эмас, ундан ҳайиқиш, унга муҳаббат пайдо қилганди: бу қаҳрамонлар ўзларининг қул, муте эканликлари билан фахрланиш даражасига етган эдилар”[5:69].

Кўриб ўтганимиздек, адиб ҳикояларида нореалистик талкин хилма-хиллиги ва тасвир ўзига хослиги яққол намоён бўлган. Бундай тасвирларда инсоннинг маънавий инкирози билан моддий фожеаси ҳам адашишлар ва йўқотишлар бағрида қайта баҳоланади. У қаҳрамонларини бир муҳитда теран таҳлил қилади. Аввало, давр ва замон тутумларига тобе ва қул яшаган образлар тизими ёзувчининг Ғарб адибларининг XX аср бошларида қўллаган тасвир экзистенциясини барқарорлаштиришга қаратилганлиги билан муҳим аҳамият касб этади.

Қайд этиш жоизки, ҳикоя-истиора шакли Назар Эшонкул асарларининг ажралмас бир қисмига айланди. “Ҳикоя тили рамзлар силсиласига қурилади. Асар композицияси ўрнини истиора қолипи (метафорик модел) эгаллайди. Натижада ҳикоянинг макон-замон қамрови улканлашади. Маъно кўлами кенгайди. Шуларнинг барчасини ўзида мужассам этган кичик эпик жанрдаги асар шак-шубҳасиз ҳикоя-истиора бўла олади ва у табиий равишда қатта эпик жанрлар билан баҳсга киришади”[1:260]. Бинобарин, мазкур манбага қўшимча қилиб шунини айтиш мумкинки, воқелик қанчалик сирли, сеҳрли, адабий бир стереотипга айланиши учун қарийб бир аср вақт ўтган бўлса ҳам ҳалигача бунинг тадрижий ривожланиш қонуниятлари юзага чиқаётгани сир эмас. Айниқса, талқин ва тасвирдаги кўп қатламлилиқ адиб асарларида архитектоник бир бутунлиқни ҳосил қилиб бормоқда.

Зеро, услубий ўзига хослик жиҳатидан ёзувчи ҳар қанча ғарб адабий аъёнлари синтезига мурожаат қилмасин, ўзининг ягона фалсафий-эстетик олами, сўзи, ижодий концепцияси, адабий мушоҳадаси алоҳида бир йўналишга эврилди. Натижада ёзувчи ҳеч муболағасиз айтиш мумкин, инсон руҳиятига ичдан кириб бориш малакаси салафлари қаторида олдинда эканлигини тўлалигича исботлаб улгурди. Бу жиҳати билан адабиётда янги ҳикоя қилиш тарзининг вужудга келишига кенг йўл очиб бераётгани фикримиз далилидир.

Адабиётлар

1. Жўракулов У. Назарий поэтика масалалари. –Т.: “Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти”. 2015. 260-б.
2. Пардаева З. Ўзбек романи поэтикаси. –Т.: “Фан”. 2003. 29-б.
3. Холдоров Д. Руҳий таназзул тасвири //https://jahonadabiyoti.uz/2017/12/01/ дилмурод-халдор-руҳий-таназзул-тас/.
4. Чулиева Н. Ижодкор маҳорати ва жанр поэтикаси. (Н.Эшонкул қиссалари мисолида).Филология фанлари бўйича фалсафа докт.дисс. –Қарши: 2020. 124-б.
5. Эшонкулов Н. Момоқўшиқ. Қисса ва ҳикоялар. –Т.: “Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти”. 2019. 55-б.
6. Эшонкулов Н. Момоқўшиқ. Қисса ва ҳикоялар. –Т.: “Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти”. 2019. 69-70-б.

РЕЗЮМЕ

Мақолада ўзбек адабиётида нореалистик талкин ўзига хослигининг намоён бўлиш омиллари Назар Эшонкул ижоди негизида талкин қилинади. Адиб ҳикояларида зулмат ичра нур қидираётган қаҳрамонлар табиати таҳлилга тортилиб, жаҳон адабиёти намоёндаларини илҳомланиш йўсинларига муносабат билдирилади. Айниқса, маънавий таназзул ва мутелик адиб қаҳрамонлари руҳиятини очиб бериш қалити эканлиги даъво қилинади.

РЕЗЮМЕ

В статье анализируются факторы проявления своеобразия нереалистической интерпретации в узбекской литературе на основе творчества Назара Эшонкула. В рассказе писателя анализируется характер героев, ищущих свет во тьме, и выражающих пути вдохновения представителей мировой литературы. В частности, душевный упадок и немощь – ключи к раскрытию психики героев писателя.

SUMMARY

The article analyzes the factors of manifestation of the originality of unrealistic interpretation in Uzbek literature based on the work of Nazar Eshankul. In the writer's stories, the character of the heroes looking for light in the dark is analyzed, and the ways of inspiration of representatives of world literature are expressed. In particular, mental decline and dumbness are the keys to revealing the psyche of the writer's heroes.

“MASNAVIYI MA’NAVIY”DA OLQISH ASOSIDA YUZAGA KELTIRILGAN ODDIY FOLKLORIZMLAR

U.S.Azimov - tayanch doktorant

Buxoro davlat universiteti

Tayanch soʻzlar: maqol, matal, olqish, qargʻish, iboralar, yozma adabiyot, oddiy folklorizm.

Ключевые слова: пословица, притча, ликование, проклятие, фразеологизмы, письменная литература, народный фольклор.

Key words: proverbs, sayings, applause, curses, phrases, written literature, simple folklorism.

Folklor va yozma adabiyot munosabatlari ikki adabiyot paydo boʻlganidan buyon davom etadi. Ammo bu adabiyotlarning oʻzaro aloqasi, bir-biriga taʼsirini tadqiq etish XX asr adabiyotshunosligi bilan bogʻliq. Dunyo folklorshunosligi va adabiyotshunosligi oʻz obyektlari

asrlardirki, oʻrganib kelmoqda. Ammo xalq ogʻzaki badiiy ijodining yozma adabiyotga taʼsirini oʻrganish boshlanganiga, oʻzbek adabiyotshunosligi misolida aytgach, bir asrdan oshdi. Bu jarayon XX asrning 40-60-yillarida folklor anʼanalari sifatida oʻrganilgan boʻlsa, 70-80-yillarida folk-

lorizm sifatida tadqiq etildi. Biz oddiy folklorizmning tarjimashunoslikdagi o'zni bilan bog'liq ba'zi jihatlari haqida fikr yuritmoqchimiz.

O'zbek adabiyotshunosligida oddiy folklorizm dastlab ustoz adabiyotshunos B.Sarimsoqov [1] maqolalarida, keyinchalik olimlar I.Yormatov [2] va L.Sharipovalarning [3] nomzodlik dissertatsiyalarida tadqiq etildi. Hozirda aksariyat tadqiqotlarda oddiy folklorizm bilan bog'liq tarzda fikr yuritib, ma'lum tahlillar amalga oshirilmoqda. Ammo tarjima jarayonida aslyatda mavjud oddiy folklorizmlarning qay taxlit tarjima qilinishi, ma'lum asar bag'ridagi bir xalqning maqoli, olqishi kabilarni qanday tarjima qilishning o'zi alohida masalaki, bu jarayon atroflicha o'rganilgan emas.

Adabiyotshunos B.Sarimsoqov yozma adabiyotda "xalq maqollari, matallari, yumuq iboralar, og'zaki nutq uchun xos ifoda hamda oborotlarning qo'llanishini oddiy folklorizm"[1] deb hisoblaydi. Olima L.Sharipova esa "Maqol va matal folklor janri, buning ustiga ularni badiiy asar tarkibidan topish oson va ular ixcham bo'lgani sabab oddiy folklorizm sanalsa, bizningcha, qarg'ish va olqishni ham murakkab folklorizmning analitik folklorizm ko'rinishiga mansub demasdan oddiy folklorizm deyish ma'qul" degan xulosani o'rta tashlaydi hamda qarg'ish va olqishning hajman ixcham, nutqda tayyorligi, yozma badiiy asar tarkibidan topish osonligini ta'kidlash orqali fikrini dalillaydi [4]. Biz ushbu fikrlarni asosli sanab, yozma adabiyot tarkibiga kirgan olqishni oddiy folklorizm sifatida o'rganishga kirishdik. Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy"ida ko'plab olqishlardan unumli foydalanilgan.

Avvalo, olqish janriga to'xtalsak, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'oti-t-turk" asarida "alqish" so'ziga shunday izoh beriladi: "Olqish, maqtash, duo qilish, tabrik, birovning yaxshi xislatlarini eslash"[5]. "Alqadi", ya'ni "duo qildi", "olqishladi", yani "maqtadi" fe'llari ot so'z turkumiga oid "alqish" so'zidan hosil bo'lgan. Vaqt o'tib folklorida olqish janri yuzaga kelgan. Janrga xoslik "Devonu lug'oti-t-turk"da "alqish" so'ziga berilgan izoh bilan bog'liq. Ko'rinadiki, og'zaki badiiy adabiyotga oid bu janr nekin odamlar tomonidan duo tarzida aytilgan. Folklorida so'z magiyasiga asoslangan janr hisoblangan, xalq yaratgan olqishlar yozma adabiyot tarkibida kellar ekan, oddiy folklorizmga aylanadi.

"Masnaviyi ma'naviy"ning "Birinci daftar"ida "Nasroniylarning vazir makr-u hiylasiga uchishi bayoni" hikoyatida shunday satrlar bor:

Ul esa noibi dajjoli la'in,

Ey Xudo, bizni balodin asragin[6].

Bu satrlardagi mohiyatni anglash uchun hikoyatni, zarur bo'lsa, undan oldingi hikoyatlarni o'qish lozim. Juhudlarning podshosi nasroniylarni o'ldira boshlaydi. Makkor vaziri ularni o'ldirish emas, dinidan qaytarish, din yo'lidani adashtirish uchun makr ishlatish lozimligini maslahat beradi. Vazirning hiylasiga ko'ra shoh vazirning qo'lini, qulog'ini kesdiradi, burnini ezdiradi. Juhud vazir hammaning oldida Iso payg'ambarni ulug'laydi. Dorga osdirishga shaylangan shoh tayyorlab qo'yilgan odamning "Avf aylang", - degan iltimosiga ko'ra vazirini olis shaharga badarg'a aylaydi. Rejaga ko'ra vazir nasroniylarning ishonchiga kirib, "qilni qirq yoruvchi as'hoblarni" ham garang aylab, "Noibi Iyso" deb madh etiladi. Shoir vazir aslida noibi dajjoli la'in, baloga barobar ekanini ta'kidlab, Allohdan panoh so'raydi. Ayni shu o'rinda "asragin" olqishini qo'llab, oddiy folklorizmni yuzaga keltiradi. "Asragin" olqishi doimo to'ldiruvchisi bilan birgalikda birikma holatida kelib, nimadan asrash lozimligini oydinlashtirib keladi: "o'limdan asragin", "ofatdan asragin", "yomonlikdan asragin"... Ko'rinadiki, bu olqish Allohdan himoya so'rash bilan bog'liq. "Allohim asrasin!", "Rabbim, o'zing asra!" kabi shakllarda kellar ekan, "kimni, nimadan?" so'roqlariga javob bo'lsa, duo kimga, nega aytilgani ayon bo'ladi. Balo yomonlikning ofat keltiruvchi ko'rinishi

bo'lib, uni yengish uchun Allohning ko'magi zarurligi folklor namunalari ko'p bor tasvirlangan. Makr, ayniqsa, e'tiqodni sustlashtiradigan hiyla baloga barobar. Shoirning fikrlarini tarjimon to'g'ri ifodalay olgan.

"Omon bo'l" olqishi keng tarqalgan olqishlardan bo'lib, shu holicha ham olqish sanaladi va qo'llanadi. Ammo o'z to'ldiruvchisi bilan birga kelishi ham mumkin. "Asragin" fe'li Tangridan so'rash orqali aytilgan bo'lsa, "omon bo'l" olqishi insonlarga, badiiy adabiyotda hayvonlarga, qushlarga, hatto jonsiz narsalarga nisbatan qo'llanishi mumkin. "Birinci daftar"da "Xalifa Laylini ko'rgani hikoyati" bor. Bu hikoyatda shunday deyiladi:

Domanidin tut uni sen, begumon,

O'fati oxirzamondin bo'l omon [6:20].

Ko'rinadiki, olqish "oxirzamon ofatidan omon bo'l" tarzida qo'llanmoqda. Ammo shoir oddiy folklorizmni yuzaga keltirar ekan, omon bo'lishning sharti borligini aytadi. Shoir avliyo Xudoning yerdagi soyasi ekanini, uning etagini tutish lozimligini ta'kidlaydi. Hikoyatni shunday yakunlaydi:

Mardi Haq bo'l, bo'l hasaddin beg'ubor,

Bizga o'xshab sen uni tuproqqa qor [6:20].

Yuqoridagi baytning birinchi satri olqish bo'lib, oddiy folklorizm yuzaga kelgan. Shoir lirik qahramonga hasaddan beg'ubor bo'lishni tilamoqqa. Ayni damda, muallif hasadni tuproqqa qorish lozimligini aytib, o'zi bu yo'lni bosib o'tganini aks ettirmoqda. Hasaddan xoli inson Allohning mard ekanini ta'kidlamoqda. Bu o'rinda avliyoning darajasi ifoda etilgan.

Olqishlar haqida so'z ketganda, tilak bilan olqishning aloqasi haqida fikr yuritish lozim. Negaki tilak qilish asosida olqish janri yuzaga keladi, ammo hamma tilak ham olqish bo'lavermaydi. Ayrim tilaklar olqish darajasiga ko'tarilmay qoladi. Chunki bir insonning uzoq umr ko'rishi, baxtli bo'lishi kabilarni ikkinchi bir inson yaratgandan iltijo qilib so'rashi orqali olqish yuzaga keladi. Ammo shunchaki tilak bildirilsa-yu, Allohdan so'ralmasa, olqish janri namunasi yaratilmaydi:

Lablaring yum, zar to'la kaftingni och,

Ziqnalikni qo'y, saxoga ber rivoj [6:167].

Bizningcha, bu satrlarda tilak bor, ammo tilak olqish darajasiga ko'tarilmagan. Olqish ham tilakdan yuzaga kelishini inobatga olsak, janr holatiga kelgan tilak bilan olqish bo'la olmagan niyatning farqiga borish kerak. Ammo bu oson jarayon emas. Nazarimizda, tilakning yuzaga chiqishida insonning roli yetakchi o'ringa chiqsa, olqish bo'lolmaydi. Bildirilgan tilak ijrosi Allohdan so'ralsa, tilak amalga oshsin deb xudoga iltijo qilinsa, folklorning olqish janri yuzaga keladi:

O'chmasin yongan chirog'ing to shu tob,

Sen pilikni sozla, so'ng yog' qo'y shitob [6:167].

"O'chmasin yongan chirog'ing" olqish namunasi bo'lib, oddiy folklorizm yuzaga kelgan. Shoir uzoq umr tilab qilingan duoni betakror tarzda keltirmoqda. Ammo chiroq o'chmasligi uchun pilikni sozlash, yog' qo'yish lozimligini ta'kidlayotgan shoir inson o'zini o'zi isloh qilishi lozimligini uqtiradi.

Odatda, olqish -sin qo'shimchasi bilan tugaydi. Ayrim o'rinlarda "inshoalloh", "xudo xohlasa" so'z yoki so'z birikmasi keltiriladi. She'riyatda esa olqish yuzaga keltirgan oddiy folklorizmlar vaznga solinadi va qofiya tartibiga amal qilingan holda beriladi, "inshoalloh", "xudo xohlasa" birikmalari deyarli uchramaydi. Ammo mohiyat ortida yashirin bo'ladi:

Shukr qil, mag'rur oyin bo'lmagil,

Ol quloqqa so'zni, xudbin bo'lmagin [6:106].

Odatda, olqishlar yuzaga keltirgan folklorizmlarda bo'lishsizlik shakli -ma ishlatilmaydi. Ammo nuqsonlardan himoya istab aytilgan olqishda inkor shakli qo'llanishi mumkin. Masalaning yana bir jihati borki, olqishlar yuzaga keltirgan oddiy folklorizmlar bilan Allohga munajat tarzida

aytilgan satrlar o'xshab qoladigan o'rinlarda e'tiborli bo'lish, bu ikki holatni farqlash zarur. E'tibor qiling:

Noumid bo'lma, o'zingni shod qil,

Ulki faryod tinglagay, faryod qil [6:106].

"Noumid bo'lma" olqishi oddiy folklorizmni yuzaga keltirgan. "O'zingni shod qil", "faryod qil" tilak ma'nosini tashigan. Navbatdagi satrlar Allohga iltijo sifatida yaratilgan, oddiy folklorizm emas:

Ey mudom avf aylaguvchi, avf qil,

Ey tabib, bu dardimizni daf qil [6:106].

Odatda, olqish so'zlovchi tomonidan tinglovchi yoki o'zgaga aytiladi. Olqish yuzaga keltirgan folklorizm insonga yaxshilik istash, insonni duo qilish asosida yuzaga kelar

ekan, ijrosi yaratgandan so'raladi. Shu jihati bilan munojotga o'xshab ketadi. Ammo tafovutlash lozim. Olqish insonga, munojot Allohga qarata aytilgani bilan farqlanadi.

"Masnaviyi ma'naviy"da olqish yuzaga keltirgan oddiy folklorizmlar yetarlicha uchraydi. Bunday oddiy folklorizmlar vaznga solingani, qofiyaga moslangani bilan folklorida yaratilgan olqishlardan o'zgachalik kasb etadi. Shoir uni o'z maqsadi yo'lida xizmat qildiradi. Hatto bir xil olqish qo'llangan o'zni, qo'llanish sababiga ko'ra rang-baranglik kasb etadi. Eng muhimi, bunday oddiy folklorizmlar asarning mazmun-mohiyatini mukammallashtirishda, shoir hikoyatlarining ma'no qatlamlarini teranlashtirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etgan.

Adabiyotlar

1. Sarimsoqov B. Folklorizmlar tipologiyasiga doir. // O'TA, 1980. №4. 39-42-b.
2. Ёрматов И. Типология фольклоризмов в современной узбекской литературе (60-е начало 80-х годов) КД. -Т.: 1985. -С.36-38.
3. Sharipova L. XX asrning 70-80-yillari o'zbek she'riyatida folklorizmlar: filol.fan.nomz. ...diss.avtoref. -Toshkent: 2008. 12-13-b.
4. Sharipova L. She'riyat va folklor. Monografiya. -Toshkent: 2019.
5. Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad Qoshg'ariy. Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'oti-turk). 3 jildlik. 1-jild. -Toshkent: «Mumtoz so'z», 2016. 84-b.
6. Mavlono Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma'naviy. Birinchi daftar. Forsiydan Jamol Kamol tarjimasi. -Toshkent: "Meriyus" XHMK, 2010. 19-b.

РЕЗЮМЕ

Xalq maqoli, matali, olqish va qarg'ishi, iboralari yozma adabiyotda qo'llansa, oddiy folklorizm yuzaga keladiki, bu adabiyotshunoslikda yetarlicha o'rganilgan. Ammo tarjima qilingan asarlarda bu jarayon qanday kechishi deyarli tadqiq etilmagan. Ushbu maqolada "Masnaviyi ma'naviy"ning o'zbekcha tarjimasida uchragan oddiy folklorizmlar haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В этой статье рассказывается употребление пословиц, поговорок, аплудисментов и ругательств в фольклорных текстах, хорошо изученный в литературе. Однако исследование того, как этот процесс происходит в переводных произведениях, почти нет. В данной статье рассматриваются простые фольклоризмы, встречающиеся в узбекском переводе «Masnaviyi ma'naviy / Культурные Сокровища».

SUMMARY

This article describes the use of proverbs, sayings, applause and curses in folklore texts, well studied in the literature. However, there is almost no research into how this process occurs in translated works. This article examines simple folklorisms found in the Uzbek translation "Masnaviyi ma'naviy / Cultural Treasures".

БИРИНШИ ҚАРАҚАЛПАҚ РОМАНЫ

(XX асрдин 50 - жылларындағы түркий тиллес халықлары романлары типологиясы контекстинде үйренилиў мәселелери)

М.Д.Бекбергенова - филология илимлериниң кандидаты, доцент

Әжинияз атындағы Нөкис мәмлекетлик педагогикалық институты

Таянч сўзлар: роман, образ, сюжет, типология, маҳорат, дoston, жанр, аныана, мавзу, фикр.

Ключевые слова: роман, образ, сюжет, типология, мастерство, эпос, жанр, традиция, тема, идея.

Key words: novel, image, plot, typology, skill, epic, genre, tradition, theme, idea.

Қарақалпақ прозасының биринши романлары XX асрдин 50-жылларының ақырында пайда болды. Олар А.Бегимовтың «Балықшының қызы», Ж.Аймурзаевтың «Әмиўдәрья бойында», Ө.Айжановтың «Арал кушағында» романлары болып табылады. Қарақалпақ жазыўшысы А.Бегимовтың «Балықшының қызы» дәретпеси миллий прозадағы эпикалық жанрдың ири формасы болған романның биринши түри екенлигин белгилейди. Қарақалпақ романын изертлеўши Ж.Нарымбетов қарақалпақ романының кәлиплесиўинде «киши прозаның роли бар, қарақалпақ авторларының көплеген повесть хәм романлары олардың бурын жазған очерк хәм гүрриңлер базасында дәретилди. Мәселен А.Бегимовтың «Биринши кәдем» (1932) «Өлим тырнағында» (1935) гүрриңлери, «Балықшының қызы» романы ушын сюжетлик хызмет етти [1:26]. С.Мухановтың «Ботакос (1948) романы болса А.Бегимовтың «Балықшының қызы» романы теманы таңлап алыўына, қахарман образының жасалыўына хәм қурылыс принциплерине тәсири тийгизди», - деп жазған еди [1:31]. Көркем дәретпе өмирлик турмыс тийкарында пайда болады. Жазыўшы А.Бегимов «Балықшының қызы» романында XX асрдин басындағы қарақалпақ аўылының турмысы, Арал теңизи жағасындағы жайласқан Дөнгелек көлдин бойындағы балықшылардың өмирин сүўретлейди.

Л.И.Тимофеев романды үлкен эпикалық форма деп атайды. Романда курамалы турмыслық жөнелис сүўретленеди-дәўир деп көрсетеди хәм А.С. Пушкин-

ниң «роман дегенде қыял арқалы баян етилген тарийхый дәўирди түсинемиз» деген пикирин келтиреди [2:361].

Қарақалпақ прозасын арнаўлы түрде изертлеген акад.М.К.Нурмухамедов А.Бегимовтың «Балықшының қызы» романын талыққа алып, өз пикирлерин билдирген еди. А.Бегимовтың бул шығармасы романға тийисли белгилерге ийе екенлигин атап көрсетеди. Романда көп қахарманлар, көп ўақыялар тарийхый дәўир сүўретленген. «Романда оғада бай мысаллар менен берилген турмыслық, этнографиялық картиналар өмирди түсиндириўшилиқ әхмийетке ийе. Бундай картиналардың қатарына жаслардың отырыспалары, қызлардың кийиниўлери, безенип-жасаныўлары, Саятхан менен Досбергенниң жуўап айтысыўы айырым географиялық атамалардың пайда болыўы туўралы легендалар, балық аўлаўдың усылларын сүўретлеў...Бул материалларды романда сөз болыўын турмыстың миллий өзгешелигин жасаў ушын пайдалана отырып, автор соның менен бирге бул материаллар жәрдеми менен ўақыяларды, характерлерди әдеўир толықтырады, типлик жағдай дүзеди [3:369].

Бул романда балықшы Қәлибектиң шаңарағы ҳаққында сөз болады, балықшылардың турмысы, балық аўлаўдың аўыр мийнети, соның менен бирге романда еки жас Айқыз пенен Досбергенниң бир-бирине болған мухаббаты, оларға қарсылық көрсеткен байдың баласы Сайым хәм оның тәрәптарлары сүўретленген. Алым М.К.Нурмухамедов А.Бегимовтың жазыўшылық сти-